

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Xudayqulova Gulnoza Komilovna

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va Adabiyoti

Universtetining III kurs doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi frazeologik birliklar, badiiy tarjimada ular qanchalik ahamiyatli ekanini bilib olamiz. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" ("Such is life") asaridagi frazeologik birliklar tahlilga tortilgan, asliyat va tarjima matnlarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning tarjimadagi muammolari keltirilgan. Asarda keltirilgan bazi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimasida muqobil variantlari berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, frazeologik birliklar, muqobillik, klassifikatsiyalash, muqobil variant.

TRANSLATION PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE WORK OF "THE WORKS OF THE WORLD" BY UTKIR KASHIMOV

Khudaykulova Gulnoza Komilovna

3rd year doctoral student of the

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

Annotation. In this thesis, phraseological units and their significance in literary translation are explored. The phraseological units found in O'tkir Hoshimov's work "Dunyoning ishlari" ("Such is life") are analyzed, focusing on the challenges that arise in translating them from the original into English and the translation issues of phraseological units found in both the original and translated texts are discussed. In the English translation of the work, alternative equivalents of some phraseological units are provided.

Keywords: literary translation, phraseological units, equivalence, classification, alternative variant.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n15>

Tarjima va tarjima shunoslik bugungi kunda dunyoning eng dolzarb mavzularidan biridir. Bu soha yer yuzining barcha mamlakarlari va qit'alarida bir necha ming yillardan buyon paydo bo'lib rivojlanib borayotgan sohadir. Insonyatning kemalari. Karvonlari asrlar davomida turli qit'alarni turli maqsadlar sari kezadi. Albatta shu karvonlar, kemalarda savdogarlar, sarkardalar, olimlar, din ulamolari, hunarmandlar, munajjimlar, hakimlar, tabobatchilar kabi ko'plab soha vakillari bilan birgalikda tarjimonlar ham bo'lganlar. Ilgari "tilmoch" deb atalgan tarjimonlar (ya'ni bir tilni ikkinchi tilga ag'daruvchi) aql-zakovatli, zehinli, bir nechta tillarni mukammal biluvchi va ularni og'zaki o'giruvchilar bo'lganlar. Keyinchalik tarjima sohasi rivojlanib, tarjimonlar ikki mamlakat o'rtasidagi xalqaro munosabatlar, bitimlar, kelishuvlar, muomala munosabatlari, shartnomalari, siyosiy kelishuvlari bitiruvchi va shu bilan birga ikki millatning milliy-madaniy boyliklari kitoblar, asarlarni tarjima qiluvchilar sifatida qaralmoqda. Trjima sohasi va tarjimonlar insonlar yaratgan sohalar va kasblar ichida eng yetakchilaridan biridir.

O'zbek va ingliz badiiy asarlarida yoki, ingliz tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarda frazeologik birliklarni chuqur o'rganib bo'lmaydi. Tilning frazeologik birliklari mislsiz til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning hayot tarzini, mentalitetini namoyon etadi. O'zbek tilining frazeologik birliklari o'zbek xalqining fizologik, psixologik, tarixiy, madaniy-marifiy

hamda lingvokulturologik jihatlarini ochib beradigan ko'p qirrali, ko'p qatlamli mental tuzulmadir deb ayta olamiz. Chunki frazeologik birliklar xalqning asrlar davomida vujudga keltirgan timsoliy, tasviriy vositalaridir.

Frazeologik birliklar xalqning asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifoda va tasviriy vositalari bo'lib, ular qisman yoki to'liq majoziy, ko'chma ma'noga ega so'zlarning barqaror, izchil birikmasi hisoblanadi. Bular asarni ifodaviyligi, tasirchanligi va ma'noviy bo'yoqdorligini yanada oshiradi. Juda ko'p o'zbek yozuvchilari asarlarida biz frazeologik birliklarni ko'ramiz. Shunday adiblardan biri O'tkir Hoshimovdir. Uning juda ko'plab asarlari xalqimiz hayotiga chuqur va o'chmasiz qoldirgan. "Dunyoning ishlari" O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar asar. Asar katta-kichik bir nechta hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan. Bu asarni adib o'z onasiga bag'ishlab yozgan. Bu asar hozirgi kunga qadar bir necha tillarga tarjima qilingan, jumladan ingliz tiliga ham. Biz asarni mashhur amarikalik tarjimon Mark Riz va andijonlik yosh tarjimon Abdulloh Ro'ziyevlar tomonidan qilingan tarjima varianti "Such is life" kitobidagi frazeologik birliklarni tahlilga tortdik.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi matnida juda boy frazeologik qatlam mavjud. Adib turli xil holatlar va obrazlar orqali o'zbek xalqiga xos iboralarni mahorat bilan qo'llaydi. Ushbu frazeologizmlar asarda turli ma'naviy-psixologik holatlarni ifodalashga xizmat qilgan: quvonch va g'am, hayrat va achinish, nafrat va mehr kabi his-tuyg'ular aynan xalqona iboralar orqali aniqroq ifodalangan. Quyida asardan olingan ba'zi frazeologik birliklar va ularning semantik xususiyatlari hamda tarjimada berilishi tahlil qilinadi. Asarni o'qiganimizda yozuvchi asarda haqiqatda juda tasirli va hayotiy voqealarni yozganini his etishimiz mumkin. Asarda frazeologik birliklarni asliyatidagi va ingliz tilidagi tarjimasidagi tarjima muammolarini ko'rib chiqamiz.

Masalan: *Asliyatda: Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loplatib suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.* [Dunyoning ishlari,2023:8]

Tarjimada: Near this solitary almond tree sat a small supa. At sunset, my mother would sprinkle water about the hovli cooling the ground baked by the sun throughout the day. The earth always emitted a heady scent mingled with the fragrance of basil growing nearby a stillness always descended throughout with the arrival of dusk. [Such is life, 2024:1]

Bu gapda *tagida* so'zini inglizcha tarjimasida *near* deb tarjima qilgan. Lekin *near* tagida emas *yaqinida*, degan ma'noni beradi. Naer this solitary almond tree gapini - Under this solitary almond tree deb tarjima qilinsa tug'riroq muqobil variant bo'lar edi. Bodom tagida –near this solitary almond tree–under this almond tree.

Bundan tashqari bu yerda *hovli, supa* so'zlari milliylikni aks ettiruvchi realiyalar bo'lgani uchun inglizcha tarjimada "supa", "hovli" deb transliteratsiya qilingan va iqtibos keltirilib pastda bu so'zlar izohlab berilgan. Chunki ingliz madaniyatida hovli va supa degan so'zlar va uni ifodalovchi predmetlar yo'q.

Shu gapning o'zida ham yana bir frazeologik birlik bor: ko'loplatib suv sepmoq. Bu yerda ko'loplatib suv sepmoq so'zi *Sprinkle water* deb tarjima qilingan. Ingliz tilidagi bu so'z suv sepmoq ma'nosini bildiradi. Ko'loplatib suv sepish deganda esa yoz kunlarida havo issiganda hovlini salqinlatish uchun muzdek suv hovli yuziga ko'p miqdorda suv sepishni tushunamiz. Ingliz tilidagi tarjimada tarjimon aynan ko'loplatib so'zini tarjimasini bermagan. Bu so'zni

aynan tarjimada muqobil mos tushuvchi varianti bo'lmagani uchun tarjima qilinmay tushurib qoldirilgan. *Sprinkle water* yani suv sepmoq deb tarjima qilingani asliyatdagi ma'no ekspressivligini yani ifodaviylikni susaytirgan.

Asliyatda: Ko'rdingmi, yaxshi o'smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak. [Dunyoning ishlari,2023:8]

Inglizcha tarjima: You see, it could not grow properly. Mercy should be shown about orphans.[Such is life,2024:2]

Asliyatda keltirilgan rahm qilmoq fe'li insoniylikni ifodalab, ingliz tilidagi birinchi tarjimada to look after someone or something, birovg'a g'amxo'rlik qilish ma'nosini anglatuvchi take care of frazeologik birligi ekvivalent sifatida tanlangan. Asliyat va tarjima variantida berilgan rahm qilmoq va take care of davlatimiz bosh siyosatiga ko'tarilgan yosh avlodni tarbiyalash g'oyasi bilan hamohang, chunki bu orqali yoshlarda insonparvarlik tuyg'usi shakllanadi.

Yana bir "Og'zi qulog'iga yetmoq" – bu ibora qahramonning nihoyatda xursand ekanini bildiradi. Asarda kichik qahramon o'z quvonchini tasvirlab: "*Kechqurun og'zim qulog'imga yetkudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim*" deb hikoya qiladi. [Dunyoning ishlari,2023:21] Mazmunan, bu *cheksiz shodlikdan lablari qulog'igacha yetgudek kulib yubordi* degani. Ingliz tarjimada bu frazeologizm ma'nosi saqlanib, "*grinning from ear to ear*" shaklida berilgan bo'lishi mumkin (mazmunan: quloqdan-quloqqa kulmoq). Natijada, asli iboraning tasviri (og'iz va quloq obrazi) ingliz tilida ham ekvivalent birikma orqali ifodalanadi, ma'no yo'qolmaydi. Bu holatda tarjimon frazeologik birlikka mazmunan mos ekvivalent topgan, idiomaning semantik ekvivalentini qo'llagan deyish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asarni tarjima qilganda tarjimon badiiy asarni badiiy uslubi va tasirchanligini saqlab qolishi kerak. Ko'p hollarda tarjimonlar asl matnning ibora, idiomalarining asl ma'nosini saqlab qololmaydi, bu esa asarning tasirchanligi va sifati pasayishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I. G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. -Toshkent, 2021.
2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Nurli Dunyo, 2023.
3. Ro'ziev Abdulloh, Mark Reese. Such is life. - Monee, IL, 2024.
4. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticheskii i linvokulturologicheskii aspekt. – M.: Shkola yaziki russkoj kulturi.
5. Мусаев Кудрат. Таржима назарияси асослари: Дарслик. - Т.: Фан, 2005.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>
7. <https://dictionary.cambridge.org/ru/.sprinkle>
8. Omonova M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Zebo prints, 2023.
9. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/44-jahon-adabiyoti?start=200>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.